

MINIATYURA ASARLARIDA RANGLARNING O'ZIGA XOSLIGI VA KOMPOZITSION TUZILISH XUSUSIYATLARI

Xolbekova O'g'iloy Isroil qizi
Shahrisabz DPI o'qituvchisi

Suyunov Navro'z Alisher o'g'li
Shahrisabz DPI o'qituvchisi

Xalilov Lenar Shevketovich
Shahrisabz DPI o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Hozirgi davrgacha saqlanib qolgan qo'lyozma kitoblarga ishlangan naqqoshlik va miniatyura namunalari XI-asrning oxiridan XIX-asrgacha bo'lgan rivojlanish bosqichlarini kuzatishga imkon beradi. O'quvchilarga ana shunday uzoq tarixga ega bo'lgan miniatyura san'ati nima ekanligi va nega bugungi kunda u xalqaro e'tiroflarga ega bo'lib kelayotganligi haqida tushuncha berish va targ'ibot ishlarini olib borish zaruriyatiyuzaga kelmoqda.

Kalit so'zlar: san'at, miniatyura, mo'yqalam, turunj, siyohqalam, nusxa olish, maxsus qog'oz, estetika, naqqoshlik, kompozitsiya, qalam chizgi, girihi, oltin kesma, nisbat, amaliy san'at, kitobot san'ati, rangshunoslik.

АННОТАЦИЯ

Сохранившиеся до наших дней образцы орнамента и миниатюры, нанесенные на рукописные книги, позволяют проследить этапы развития с конца одиннадцатого по девятнадцатый век. Возникает необходимость дать читателям представление о том, что такое искусство миниатюры с такой долгой историей и почему сегодня оно получает международное признание, а также провести пропагандистскую работу.

Ключевые слова: Искусство, миниатюра, кисть, турунж, чернила, копирование, специальная бумага, эстетика, орнамент, композиция, карандашная линия, гирихи, золотое сечение, пропорции, прикладное искусство, книжное искусство, колористика.

ABSTRACT

Examples of embroidery and miniature work on handbooks that have survived into the present period allow us to observe the stages of development from the late 11th to the 19th centuries. It is necessary to give readers an understanding of what is miniature art with such a long history and why it continues to receive international recognition today, and to carry out propaganda work.

Keywords: Art, miniature, fur, turunj, inkjet, copy, Special Paper, Aesthetics, embroidery, composition, pencil drawing, girih, gold cut, proportion, applied art, book Art, Color Science

Qadimgi nodir qo‘lyozmalar ichida bizgacha saqlanib kelingan, nafis, mo‘jaz rasmlar alohida o‘ziga xos go‘zallik olamiga ega. Ulardagi yorqin ranglar, nozik chiziqlar ajoyib mutanosiblik kashf etib, tomoshabinga estetik zavq bag‘ishlaydi. Jahon tasviriy san’ati xazinasidan munosib joy olgan miniatyura Sharq xalqlarining an’anaviy badiiy merosidir. U kitobot san’atining ajralmas qismi bo‘lib, qo‘lyozma kitoblarni ziynatlabgina qolmay, asardagi ilg‘or insoniy tuyg‘ularni, oliyjanoblikka bo‘lgan intilish, muhabbat to‘g‘risidagi tasavvurni ifodalashga ham xizmat qiladi. O‘rtalasri qo‘lyozmalarini ziynatlash uchun yaratilgan kichik hajmli mo‘jaz rasmlar, shuningdek, suyak, toshqog‘oz, metal, pergament, maishiy buyumlar ba’zan esa chinnilarga ranglar bilan ishlangan rasmlarga ham miniatyura atamasi qo‘llanilgan. Miniatyura-fransuzcha “miniature”, lotincha “minimum” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “qizil bo‘yoq” degan ma’noni anglatib, badiiy usullari o‘ta nafis bo‘lgan mo‘jaz tasviriy san’at asarlaridir. Miniatyuraning bugungi kungacha ravnaq topib kelishida O‘rtalasri Osiyo davlatlarida barpo etilgan bir qator miniatyura maktablarining o‘rnini beqiyosdir.

Arab miniatyura maktabi- Jahon madaniyati taraqqiyoti tarixida Sharqiy Arabiston xalqlari san’atining ham muhim o‘rnini bo‘lib, ular keyingi avlodlarga antik madaniyatining ko‘pgina yutuqlarini saqlab qolib, uni sayqallagan holda yetkazib berdilar. IX-XIII asrlar davomida Yaqin va O‘rtalasri Sharq mamlakatlari, Eron, Ozarbayjon va O‘rtalasri xalqlari bir-birlari bilan uzviy aloqada bo‘lib kelganlar. Bog‘dod, SHeroz, Tabriz, Samarqand kabi shaharlar madaniyatning yuqori markazi bo‘lib, o‘zlarining ko‘zga ko‘ringan olim-u, fuzalolari hamda fan va madaniyat o‘choqlari bilan butun dunyoni zabitetgan edilar. Bu shaharlarda matematika, astronomiya, falsafa, tibbiyot, geografiya, badiiy adabiyot, me’morchilik va hunarmandchilik o‘zining yuqori rivojlanish bosqichiga erishgan. Sharqiy arab mamlakatlarid tasviriy san’atning boshqa yo‘nalishlari rivojlanishi birmuncha orta qolayotgan edi. Uning o‘rnini esa qo‘lyozma kitoblarga ishlangan bezaklar – miniatyura san’ati egalladi. Miniatyuraning yuzaga kelishi va rivojlanishi, arab tilida

badiiy adabiyotning ravnaqi ya’ni kitobga Sharqda ilm-u ma’rifat manbai sifatida yuksak e’tirof berilganidan dalolat beradi. Miniatyura - sahifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qo‘lyozmaning eng asosiy murakkab dekorativ elementlaridan birini tashkil qiladi. Miniatyuraning asosiy ahamiyati matn mazmunini tushuntirish va umuman olganda, dunyoviy xarakterga ega bo‘lgan asarlarni kitobxonga ma’nosini ochib berishdan iborat bo‘lgan. Asosan, proza, poeziya, ilmiy traktatlar, tarixiy xronikalar aks etgan asarlarga miniatyura ishlangan. Ular orasida «Kalila va Dimna» hikoyalari, grek vrachi Dioskoridning «Farmakologiya», Rashididdinning «Jam’iut tavorix» asarlari bor edi. O’rta asr qo‘lyozmalariga miniatyuralar faqat guash bo‘yoqlaridan foydalangan holda ishlangan. Bu bo‘yoqlarni tayyorlash usuli Yaqin Sharqga VIII asrda O’rta Osiyo orqali Xitoydan kirib kelgan. Tez-tez sodir bolib turadigan bosqinchilik, madaniyat markazlarini ham chetda qoldirmadi. Natijada esa ilk arab miniatyura namunalari deyarli saqlanib qolmagan. Hozirgi kungacha yetib kelgan arab miniatyurachi rassomlarning asarlari juda kam bo‘lib, ular ham asosan XIII asrga tegishli voqeа hodisalar to‘g‘risida so‘zlaydi. Hozirgi vaqtga kelib arab miniatyuralarini o‘rganuvchi mutaxassislar qo‘lyozmalarni bezashning 3 ta davri va hududiy badiiy markazi mavjud ekanligini e’tirof etadilar.

1-davr: X-XI asrlarda hukmronlik qilgan Fotimiylar sulolasini bo‘lib, ilk miniatyura asarlarini yaratishga tamal toshi qo‘yilgan davr hisoblanadi. Ushbu davrda asosan miniatyuralar ohorlangan qog‘ozga ishlangan odamlar qiyofasi, hatti-harakatlari sodda va yaxlit holda tasvirlangan.

2-davr: XII asrning birinchi yarmilarida barpo etilgan Suriya miniatyura maktabidir. Mazkur davrda miniatyura asarlari yana o‘z mavqeyini tiklab oldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Suriya qo‘lyozmalariga tegishli bo‘lgan Hind xalqining “Kalila va Dimna” nomli eposining mazmun mohiyatini yoritib berish uchun xizmat qiluvchi miniatyura namunalari mashxurdir. «Kalila va Dimna» asarlariga ishlangan bezaklar XIII asrning boshlari va o‘rtalarida arab miniatyurasida yangi bir bosqichni boshlab beradi. Ba’zi qo‘lyozmalarda XIII asrning birinchi yarmidagi «Muxtor al-Hakim va Muhassin al-Kalim» (Al-Muboshirning «Tanlab olingan dono fikrlar va so‘zlovchining go‘zalligi») asari qo‘lyozmasidagi ilk miniatyura namunalari manzara tasviri yoki me’morchilik ko‘rinishlari bilan boyitilgan. Ushbu davrda ishlangan miniatyuralarda kishilar qiyofasining tasvirlashda ko‘proq tabiiylikka urg‘u berishgan.

3-davr: Iroq miniatyura maktabi bo‘lib Arab kitob bezakchiligining ravnaq topish davrini ushbu maktab boshlab bergen. 1224 yilda Bog‘dodda Abdulloh ibn Fadl tomonidan ko‘chirib olingan Dioskoridning «Farmakologiya» asari qo‘lyozmasi ana shu maktabga taalluqlidir. Bu qo‘lyozmaning bezagini ham Abdulloh ibn Fadl ishlagan deb tan olingan. «Farmakologiya» asaridagi miniatyuralar ham boshqa asarlardagi kabi matnning asosiy ma’nosini ochib beradigan darajada aniq va soddalik bilan ishlangan.

Miniatyura aniq chiziqlar orqali ko'rsatilgan va yorqin ranglarda ishlangan, katta qomat va buyumlar ko'rinish turgan matnlar orasidagi sahifalarning sariq fonida aks etgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning o'zi faol ishtirok etsagina uning tug'ma layoqati uyg'onadi, qobiliyatlarini asta-sekinlik bilan o'stira boshlaydi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning xuddi shu sohadagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqishni boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. G'ulomov K. M, S.S. Bulatov Sharqona usta shogird odobi.-O'zROO'MTV o'quv adabiyotlari, jurnal va byuletenlarni nashrga tayyorlash markazi, 2000. 120b
2. Imomnazarov M. A. Ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. –T.: Sharq, 1996, 46-b
3. Mirzaahmedov M. K. Yog'och o'ymakorligi. –T.: O'qituvchi, 1995. 62 bet.
4. Mirzahmedov M. K. Boshlang'ich naqsh ishlash metodikasi. –T.: O'qituvchi, 1976. 56-b
5. Kamolov I. B. "ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ТВОРЧЕСТВА У СТУДЕНТОВ" Наука и мир. 2019. 3(3). 27-28-Б.
6. Kamolov I. B. "Some Stages Associated with Artistic and Creative Activity of Future Jeweler" Eastern European Scientific Journal. 2017. 46-Б.
7. Shafoatov Z. J. "CHIZMA DARSLARIDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH" Oriental Renaissance: Innovative Journal. 2022. 981-Б.
8. Xudoyberdiyeva Z. X. "O'ZBEKISTONDA NAQQOSHLIK SAN'ATI VA YETAKCHI NAQQOSHLAR TARIXI VA RIVOJLANISHI" Academic research in educational Sciences. 2021. 52-Б.